

Hakimova Feruza

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi, O'zbekiston, Qashqadaryo

Annotatsiya: *Ushbu maqola hayot inson uchun katta sovg'a ekanligi, uni sevish kerakligi haqida.*

Kalit so'zlar: *Adabiyot, hayotni sevish, syujet, obraz, hayotga muhabbat, shukronalik hissi.*

Kirish

Adabiyot - inson his-tuyg'ularining, orzu-armonlarining, umid-istiklarining jamlammasidir.

Adabiyotni his-tuyg'u bilan shug'ullanuvchi fan desak mubolag'a bo'lmaydi. Adabiyotning hayotdagi o'rni beqiyos. Uning bosh vazifasi ijtimoiy hayotimizdagi vaziyatlarni obrazlar yordamida ko'rsatib, yoritib, insonlar ongida shu vaziyatni gavdalantirib berishdan iborat. Insonning ongiga tog'ridan to'g'ri ta'sir etishda, his-tuyg'ularini uyg'otishda, adabiyotga teng keladigan soha yo'q. Uning ta'siri nihoyatda kuchli. Badiiy adabiyot yozuvchining ko'ngil kechinmalarining mahsulidir. Undagi voqealar muallifning ongi va qalbida tug'ulgan obraz orqali yoritilib beriladi. Asarning ta'sirchan bo'lishiga asosiy sabab shundaki, yozuvchining ko'ngil sirlari, ijtimoiy hayot haqidagi fikri o'zi tomonidan yaratilgan obraz va detallar orqali anglatiladi, ularni o'zi yaratadi. Shuning uchun ham Mirmuhsin "Yozuvchi uchun hamma asari ham farzandidek aziz... shaxsan men uchun "Degrez o'gli"... hayotimning yaxlit bir bo'lagi "¹ - deb yozadi. Yozuvchi o'quvchining ko'nglida o'zi his qiladigan hislarni uyg'otishda so'zdan foydalanadi. Oddiy so'z bilan ko'ngil torlarini cherta oladi, ko'zlarni namlantira oladi, tabassum in'om eta oladi va kuch bilan hal qilishga erishilmagan narsalar so'z bilan uddalash mumkin. Badiiy adabiyotning quroli so'zdir. M. Gorkiy aytganidek "Ish tafakkur uyg'otadi, tafakkur ish tajribasini so'zga aylantiradi, undan g'oyalar... gipotezalar nazaryasini... hosil qiladi... Yozuvchining asosiy materiali so'zdir"

Ulug' allommalarimiz, mutaffakkir-u, yozuvchi shoirlarimizning asarlari hayot yo'limizni yorituvchi mashala vazifasini bajarmoqda. Bunday asarlar behisobdir. Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarini bunday asarlar sirasiga kiritish mumkin, hamda bunday asarlar beqiyosligini e'tirof etish mumkin. Asarda shukronalik qilish kerakligi, hayotning muqaddasligi, uning qadr-qimmati tarannum etilgan. Bu hikoya g'oyat hissiyotga boy asardir. Uni o'qigan har bir kitobxon ko'nglida g'oyat o'zgacha hislar, tuyg'ular paydo bo'ladi. Hayotga bo'lgan muhabbbati ortadi. Voqealarida do'stga xiyonat uchrashida ham ma'no bor, ya'ni bu tuyg'u qadrini bilishga undalgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday hislar bilan birgalikda hayotni sevish, unga muhabbat, shukronalik tuyg'ularini muhim, hamda alohida ta'kidlashga loyiq nazarimda.

Bugungi maqolamiz aynan shu xususida.

Asosiy qism.

Hayotning har oni go'zal, har daqiqasi beqiyosdir. Bunga biz "Hayotga muhabbat" asari orqali ishonch hosil qila olamiz. Asar o'ziga xos syujet qurilishiga ega. Syujet (fransuzchadan

tarjimasi - predmet, mazmun, narsa) asarning mazmunini ko'rsatib beradigan, o'zaro bog'liqlikda kechadigan voqealar tizimidir³. Syujet haqida M. Gorkiy shunday deydi: "Adabiyotning uchinchi elementi syujetdir, ya'nii odamlarning o'zaro aloqalari, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, simpatiya va antisimpatiyalar, umuman kishilar o'rtasidagi munosabatlar u yoki bu xarakterning, tipning tarixiy rivojlanishi, tashkil topib borishidir⁴. Hikoyada yo'lga chiqqan do'stlar voqealari bir-biri bilan bog'lanib ketadi. Biz jahon adabiyotining yirik namoyondasi Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asaridagi ilgari surilgan g'oyani tahlil qilamiz.

Hikoyada ikki yo'lovchining borgan yo'lidan iziga qaytayotganligiga amin bo'lamiz. Bu hikoya qisqa bo'lishiga qaramasdan ta'sirchanligi, mazmun-mohiyati bilan kitobxonlar qalbidan o'rinni olgan.

Ular soyga qarab borardilar. Ikkalasi ham charchab, holdan toygandi. Muzdek suvga tushishdi. Hamrohlardan biri suv ostidagi silliq toshga tiyg'anib, yiqilishga oz qoldi. U do'stini chaqirdi: "Bill qara oyog'imni chiqarib oldim shekilli". Do'stidan esa sado kelmasdi, yerdan ko'z uzmay uzoqlashib borardi.

U juda uzoqqa ketdi, keyin ko'rinnmay ham qoldi. Shunda yo'lovchi o'ziga keldi. Jon-jahdi bilan og'riqqa qaramasdan yura boshladi. Qirg'oqqa chiqdi va baland tepalikka ko'zi tushdi. Unga chiqsam Billni kuraman deb ishondi. Tepalikka chiqdi ham, lekin Billdan darak ham yo'q edi. U Diz daryosi bo'yida ustiga tosh bostirib qo'yilgan qayiq ostida miltiq o'qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to'r, umuman ovqat topish uchun zarur bo'lgan marsalar borligini esladi. U Billni shu joyda kutishiga va ikkalalari Katta Ayiq ko'liga, undan keyin Makkenzi daryosidan janubga qarab ketishlarini hayol qildi va shu maqsadda o'zida kuch topip yo'lga tushdi. Kun sovuq, ochlik uni qiyinay boshladi va oyoq og'rig'i kuchayib borardi. Ochlikka barham berish maqsadida botqoq mevalari, ko'lmaklardagi baliqchalar, kaklik bolalari bilan ovqatlanishga majbur boldi. Uning uchun lazzatlari bo'lgan bu taomlarga yetishish uchun ham ko'p zahmad chekdi. Baliq tutish uchun ko'lmaknini suvdan bo'shatdi. Kaklik tutish uchun esa oyoqlari tilinib azob berdi. Sovuqdan qotib qolmaslik uchun suv qaynatib ichdi. Tillalarini ham oz-ozdan tashlab ketaverdi. Tilladan hayot qimmatligini tushunib bordi. Ochlik azobi uni qiyarnardi. Bir kuni u kaklik uyasi ustiga yiqilib tushdi. Uyada tuxumni endi tuxumni yorib chiqqan kaklik bolalarini tiriklay og'ziga sola boshladi. Kaklik bolalarining suyaklari uning tishlari orasida xuddi tuxum po'stlog'i singari qasirlar edi. Tunda esa qulog'iga bo'rilarining uvvullashi tez-tez eshitilardi. Kunlarning birida unga aniq duch keldi, u nihoyatda charchagan, ochlik, tashlik azobi qiyalar va juda holsiz edi. Yirtqich lapanglab oldinga qadam bosdi, ikki oyog'ini ko'tarib o'kirib yubordi. Odam qochganida ayiq uning orqasidan quvgan bo'lardi. Lekin odam qo'rquvni yengib, o'midan qimirlamadi, u ham yirtqich hayvondek daxshat bilan o'kirib yubordi, bu kuchli qo'rquv ifodasi edi, chunki qo'rquvni yengish yashash uchun kurash bilan chambarchas bog'liq. Ayiq bu sirli maxluqdan hayiqib chekindi, lekin odam qaqqaygancha qotib qoldi. So'ngra o'ziga kelib, yo'lini davom ettirdi. Yo'lida ketayotganda esa bo'rilar xuddi shu yerda ovni qo'lga kiritishgandi. U yerdagi qizg'ish suyaklar bug'uniki ekanligini sezdi va suyaklarni kemirishga tushdi. Kun o'tkazish uchun shu ishlarni bajardi. Bir kun yo'lida esa u inson izlarini ko'rib, uning ortidan keldi. Kemirib tashlangan suyaklar va bo'ri izlariga ko'zi tushdi. Yonida esa bug'u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bu suyaklar Billniki edi. Billning so'ngi nafasigacha tillani olib yurganini ko'rib

kului. U Billning suyaklarini kemirmaydi, tillalarini ham olmaydi. Hayolida esa "Bill mening o'minda bo'lganda shunday qilgan bo'lardi" - deydi hamda yo'lida davom etadi. Uni bir kasal bo'ri taqib etayotgan edi. Ular bir maqsad uchun kurashdagi raqiblar edilar. Ya'ni yashash uchun kurash jangida. Yo bo'ri odamni yeyishi kerak edi, yo odam bo'rini o'ldirishi kerak edi. Ular bir-birini kutib yurishardi. Bo'ri sabrli edi, odam esa undan sabrli edi. Bir kun odam uyqudan uyg'onganda qo'liga tish botayotganini sezdi va tezda o'zini o'ngladi. Qo'li bilan bo'rining og'ziga yopishdi, jag'ini qisdi. Bir qo'li bilan bo'g'ardi, besh daqiqadan keyin odam bo'rini bor og'irligi bilan bosdi, bo'rini bo'g'ib o'ldirishga kuchi yetmasdi, shunda tishi bilan bo'rining tomog'iga yopishdi, og'zi yunga to'ldi. Yarim soatdan so'ng odam tomog'iga qon quyulganini sezdi. Endi shu holatni ko'z oldingizga keltiringchi...

Odamni "Bedford" kemasida ilmiy ekspeditsiya a' zolari bu yerlardan olib ketdi, ammo undagi mashaqqat, qiyinchiliklarga bardosh berish taqsinga sazovordir. Alisher Navoiy ham hayotni sevishni talqin etgan. Buni bir ruboiy misolida ko'ramiz.

Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,

Baxtim kibi, har ishta zabunlug' qildi,

Gah kom sari rahnamunluq qildi,

Alqissa, base buqalamunluq qildi.

Ruboiyning tub mag'zida hayotga muhabbat bor. Har qanday shaxs taqdiri mohiyatan murakkab kechadi. Kishi hayoti bir kun undoq, bir kun bundoq o'tishi mumkin. Xalqimiz buni "O'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'", degan ajoyib maqol orqali ifodalangan. Ruboiyda ko'pchilik hayotni sevishni unutib, unga eng katta sovg'a sifatida emas, balki og'ir yuk sifatida qarashadi.

Bu misralarda aynan shu ma'no yotipdi. Buyuk sarkarda Amir Temur ham Buxoro amirini qo'lga tushurganda shunday deydi : "Bugun ertalab aytgan takliflarimga unamading, endi mening qo'limdasan joning ham, moling ham, eng qimman boyliging hayoting, ozodliging ham mening qo'limda"⁶ deb takidlaydi. Bundan ko'rinish turibdiki hayotning har vaqtiga g'animat.

Yuqorida sermazmun asarlarga to'xtalib o'tdik. Ijtimoiy holatlar, vaziyatlar aks ettirilgan asarlar ko'p. Lekin shular bilan bir qatorda hayotga muhabbat tushunchasi ham muhim deb o'ylayman. Inson uchun har bir yangi kun eng yaxshi sovg'adir. Zero, unda hammasini qaytadan boshlash imkonи mayjud!!! Hayotni sevish kerak. Yuqoridagi maqolamizdan asosiy maqsad hayotga og'ir yuk sifatida emas, insonga Alloh tomonidan berilgan sovg'a sifatida qarash kerak ekanligi g'oyasini bayon etish edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normatov U. Talant tarbiyasi. T: "Yosh gvardiya" 1980, 47-bet
2. Shukurov N. va boshqalar. Adabiyotshunoslikka kurish. T "O'qituvchi", 1979. 117-bet.
- 3."Adabiyotshunoslik nazariyasi" A. Ulug'ov, G'. G'ulom. NMIU, T-2018
- 4.Adabiyotshunoslik nazariyasi Hotam Umarov, M. Gorkiy.
5. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"
6. Marsil Brion. "Men kim Sohibqiron Jahongir Temur".